

## BOBURIYLAR IMPERIYASINING UNIFORMALOGIYASI. IJTIMOIY VA MADANIY JIHATLAR TIMSOLIDA

*TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti*

*Turk-ingliz guruhi 2-bosqich talabasi*

*Xolmirzayeva Mushtariybegim*

*Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hind va temuriy sulola vakillari madaniyatlarining qorishmasi bo‘lgan kiyinish tarzi va kiyim turlari haqida so‘z boradi. Maqolada hukmdor ayollar, malikalar va saroy a’zolarining kiyimlariga alohida e’tibor berilgan, ular kiyim-kechak orqali ijtimoiy maqom va hokimiyatni ifodalashgan. Boburiylar imperiyasi davrida keng tarqalgan muslin matolari, pai-jama, turban, zargarlik buyumlari, poyabzal va bosh kiyimlar madaniyatlararo o‘zgarishlarni aks ettiradi. Shuningdek, kiyim-kechaklar orqali turkiy va hindiy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va birlashuvi, zardo‘ziy naqshlar, kiyimlar dizayni va bezatish uslublaridagi farqlarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Maqola ikki madaniyatning sintezi sifatida kiyim-kechaklarning tarixiy va madaniy ahamiyatini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Boburiylar imperiyasi, Uniformologiya, Kiyim-kechak, Hind madaniyati, Turkiy madaniyat, Muslin matolar, Pai-jama, Turban, Poyabzal, Sariy, Pushak, Jama, Shabnam muslin, zardo‘zi naqshlar.

**Annotation:** This article discusses the fusion of the cultural attire of the Timurid and Mughal dynasties, focusing on the clothing styles and types that emerged from this blend. Special attention is given to the clothing of ruling women, queens, and court members, who used their attire to express social status and authority. Fabrics such as muslin, pai-jama, turbans, jewelry, footwear, and headgear, widely used during the Mughal Empire, reflect intercultural transformations. Additionally, the article highlights the influence and merging of Turkish and Indian cultures through clothing, showing the differences in design, decoration, and fabric patterns such as zari embroidery. The article emphasizes the historical and cultural significance of the synthesis between the two civilizations in the context of fashion.

**Keywords:** Baburids Empire, Uniformology, Clothing, Indian Culture, Turkish Culture, Muslin Fabrics, Pai-jama, Turban, Footwear, Sari, Pushak, Jama, Shabnam Muslin, Zardozi Patterns.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается слияние культурных традиций одежды Тимуридов и Моголов, а также типы и стили одежды, которые возникли в результате этого смешения. Особое внимание уделяется одежде женщин-властителей, королев и членов двора, которые использовали свою одежду для выражения социального положения и власти. Широко использовавшиеся в эпоху

Могольской империи ткани, такие как муслин, пай-джама, тюрбаны, украшения, обувь и головные уборы отражают межкультурные изменения. Также статья подчеркивает влияние и слияние турецкой и индийской культур через одежду, показывая различия в дизайне, декорации и тканевых узорах, таких как zari вышивка. Статья акцентирует внимание на историческом и культурном значении синтеза двух цивилизаций в контексте моды.

**Ключевые слова:** Империя Бабуридов, Униформология, Одежда, Индийская культура, Турецкая культура, Муслин, Пай-джама, Тюрбан, Обувь, Сари, Пушка, Джама, Шабнам муслин, Зардоузи узоры

Olis hind tuproqlarida o‘z hukmronligini qariyb 332 yil davomida saqlagan Boburiylar imperiyasi buyuk tarixga ega. Hindistonga bir qancha yangililar Boburiylar imperiyasi davrida kirib kelgan. Shu bilan birgalikda hindlar ham turkiy sulolaning madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmagan. Bu madaniy qorishmalar orasida kiyim-kechaklar ham alohida diqqatga sazovordir. Boburiylarning uniformologiyasidagi o‘ziga xos jihat ham aynan mana shu madaniyatlar birlashuvi edi<sup>1</sup>. Hukmdor tabaqa ayollari bu mavzuda bosh o‘rinni egallamoqda. Tarixdan ma’lumki, aslzoda honimlar, malikalar, saroy ayollari tashqi ko‘rinish masalasida kiyim-kechaklarga alohida e’tibor bergenlar. Bohqa sivilizatsiyalar bilan taqqoslaganda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buning asosiy sabablaridan biri hindlarning kasta-varna, ya’ni tabaqalashtirish tizimi edi. Bu holat Boburiylar sulolasи davrida ham saqlanib qolgan edi. Shu bois, har bir tabaqa vakili, ayniqsa, hukmdorlar oilasiga mansub ayollar bunga mas’uliyat bilan yondashardi.

Kiyim-kechak tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng avvalo gazlamalarga e’tibor qaratishimiz darkor. Malikalarning liboslari asosan baxmal, ipak, banoras, muslin va turkiy an’anaga xos bo‘lgan zardo‘ziy matolardan tikilar edi. Eng mashhur va ko‘p tarqalgan mato turi muslin edi. Muslinlar asosan uch xil turda bo‘lgan: Ab-I Ravon (oqarsuv), Baft-Havo (to‘quv havo) va Shabnam (oqshom shabadsi). Kiyimlar asosan qimmatbaho toshlar, munchoqlar, iplar va murakkab dizayn bilan boyitilgan edi. Hind gazlamalari qadimdan juda muhtasham va jilvakor bo‘lgan. Ayniqsa, hindlarning to‘qish san’ati O‘rta Sharq va Yevropani eng ko‘p o‘ziga rom etgan san’at turlaridan biri edi. Hind gazlamasining bu darajada mashhur bo‘lishiga sabab shundaki, ularda birlamchi homashyoni qayta ishslash, gazlama uchun ishlataladigan mahsulotlar, to‘qish texnikasiga haddan ziyod mehnat va e’tibor sarf qilinishi edi. Shabnam deb atalgan muslinlar Dakka shahridan keltirilgan bo‘lib, Dhakka malmal nomi bilan mashhur edi. Shuningdek, ayollar o‘z liboslarini boshdan oyoqqa qadar zargarlik

<sup>1</sup> Müslüme Melis Savaş, "Babürlü Saray Kadınlarının Güzellik Algısı ve Giyim-Kuşamları". Doç. Dr., Karadeniz Teknik Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi, Tarih Bölümü, Trabzon/TÜRKİYE.2023.

buyumlari bilan bezagan edi<sup>2</sup>. Shu bilan bir qatorda, malikalar asosan peshvaz old tomondan bog‘langan, uzun yengli kiyim kiyishgan. Ba’zi hollarda ushbu kiyim bir necha qavat muslinlardan iborat bo‘lib, qatlam holatida ko‘rinish hosil qilgan. Peshvaz ostidan esa choli kiyishgan. Jelak odatda yerga tegib turadigan, kichik yengli, yoki yengsiz uzun to‘n ham Boburiy maliklalarning sevimli kiyimlaridan biri edi. Pai-jama – bu ikkita forsiy tildagi so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, “pai” oyoq yohud oyoqlar, “jama” yopinchiq degan ma’noda keladi. Ushbu kiyim uzun yillardir Forsda kiyilgan. Biroq, Bobur boshchiligidagi Boburiylar sulolasining hukmronligi o‘rnatilgandan so‘ng, Hindistonda ham bu kiyim urf tusiga kirdi. 1530-yillardan boshlab Hindistonda turli xildagi pai-jamalar kiyilgan. Pai-jamaning bir necha xil turlari mavjud bo‘lib, bular: churidar, shalvar, dilja, garara va farshi kabi nomlar bilan atalgan<sup>3</sup>. Ular bir-biridan dizayni bilan farq qilgan. Bosh kiyimlarning ham bir nechta turlari mavjud bo‘lgan. Ulardan eng mashhuri turban bo‘lib, u boshga o‘ralgan va qimmatbaho toshlar, zargarlik bantlari, taqinchoqlar yoki boshqa toshlar qo‘shilgan. Bosh kiyimlar shakliga qarab ham bir nechta turlarga bo‘lingan. Chau-goshia to‘rt qismga bo‘lib tayyorlangan. Qubbador kubbaga o‘xhash shaklda o‘ralgan. Kash-ti Numa qayiq shaklidagi bosh kiyim bo‘lgan. Dupalli bu kichik bosh kiyim asosan ibodat uchun kiyiladigan erkaklar bosh kiyimi.

Ko‘plab sayohatchilarining fikriga ko‘ra, Boburiy malikalar o‘zlarini zargarlik buyumlari bilan bezash qalblarining xursandchiligi ekanligini ta’kidlaydilar. Hukmron tabaqa ayollarini oyoq kiyimlarga ham alohida e’tibor qaratishgan. Uchlari yuqoriga qiya bo‘lgan bezakli poyabzallar (jhuti) fors uslubida bo‘lib, ham erkaklar, ham ayollar tomonidan kiyilgan. Boshqa turdagи poyabzallar ham uchraydi: kafsh, chapal, rubari, jalabiya kabi turli xil poyabzallar mavjud bo‘lgan. Bu poyabzallar yuqori sifatli, yumshoq materiallardan tayyorlangan va zarif naqshlar bilan bezatilgan. Ko‘pincha ular gilamda harakatlanish uchun juda qulay bo‘lgan, shu bilan birga ko‘pincha poyabzalning ustki qismini uch va orqa qismini ham bezashgan<sup>4</sup>. Shuningdek, Boburiylar imperiyasidagi kiyim-kechaklarning bir qismi zamonaviy zardo‘zi san’ati va naqsh-dizayni bilan bezatilgan. Zardo‘zi, ya’ni qo‘l bilan tikilgan iplar orqali

<sup>2</sup> Uzun, T. ve Yavuz, K. ( 2023). Babürlüler Devri ( 1526-1858) Saray Resim Atölyesi ve Doğu hindistan Şirketi Resim Etkinlikleri. Korkut Ata Türkigkeit Araştırmaları Dergisi, 10, 869-892.

<sup>3</sup> Özlem N. ÖZTOKSOY. 16-18. YÜZYIL OSMANLI HİNT – BABÜR KUMAŞ SANATLARI ETKİLEŞİMLERİ. İstanbul 2007. S-2

<sup>4</sup> <http://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream/10603/49561/10/10>

to‘qilgan naqshlar o‘scha davrdagi modaning ajralmas qismiga aylangan<sup>5</sup>. Bunday naqshlar nafaqat kiyimlarni, balki boshqa turdagি mebellar va to‘shaklar, o‘rindiqlar va hatto poyabzallarni bezash uchun ham ishlatilgan. Zardo‘zi naqshlarida asosan o‘simlik, hayvon, geometrik shakllar, shuningdek, saroy va shohona muhitlarni aks ettirgan tasvirlar uchraydi. Zardo‘zi naqshlari odatda oltin yoki kumush iplar yordamida tikilgan va ular ko‘pincha inson yoki hayvon figuralarini, madaniy ramzlarni tasvirlashda ishlatilgan. Boburiylar imperiyasidagi kiyim-kechaklar nafaqat estetik jihatdan jozibador bo‘lib, balki ular hukmdorlar va ularning atrofidagi sinflarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatlarini aks ettirgan. Kiyim-kechaklar faqat tashqi ko‘rinish uchun emas, balki ijtimoiy maqomni ifodalovchi, hokimiyatni namoyish etuvchi vosita sifatida ham xizmat qilgan. Kiyinishda nafaqat materiallar va uslublar, balki ranglar ham katta ahamiyatga ega edi. Masalan, qizil va oltin ranglar ko‘pincha hukmdorlarning taxtda o‘tirishi yoki boshqa rasmiy vaziyatlarda kiyiladigan kiyimlarda ishlatilgan, bu esa ularning yuqori maqomda ekanligini bildirgan. Salim shahi eng qimmatbaho poyabzal bo‘lib, u oltin bilan bezatilgan. Kafsh asosan shohlar va nobollar tomonidan kiyilgan. Charhvan - bu boburiylar imperiyasida kiyilgan oyoq kiyim turi bo‘lib, uning uchida til o‘rnatilgan. Bu til poyabzalning burun qismiga biriktirilgan va o‘ziga xos dizaynni vujudga keltirgan. Bu poyabzal asosan nozik tabaqa tomonidan kiyilgan. Hind liboslari avvalo, kiyishga qulay va yupqa shakllanishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, hindlarning kiyimlari tikilmasdan, ya’ni choksiz holatda bo‘lgan. Maxsus kiyimlar esa alohida uslubda tikilgan. Choksiz kiyimlar tanaga o‘rash orqali kiyilgan, va shu sababli ulardan har xil uslubda foydalanish mumkin bo‘lgan.

Xuddi shunday uslubdagi kiyimlardan biri sariy hisoblanadi, u libos shakliga kelishi uchun uni yelkadan oshirib belga bog‘lash yetarli edi. Sariylar asosan “pallo” deb nomlangan gazlamadan tayyorlangan va 8,2 metrni tashkil etgan. Sariy ostidan bluza kiyilgan. Bu faqat XVIII asrga, ya’ni Boburiylar sulolasи hukmronlik qilgan davrga borib taqaladi. Sariy 100 dan ortiq shaklda o‘ralib, turi viloyat va hududlarda o‘rash uslubi bir-biridan farq qiladi. O‘rta Osiyo kiyinish madaniyatidan ta’sirlangan ayrim hindlar, “jama” forscha kiyim ma’nosini beruvchi kiyim turini ko‘p kiyishgan. Asosan XVI-XVIII asrlarda eng ko‘p tarqalgan bu kiyim aslzoda erkaklar tomonidan kiyilgan. Ushbu kiyimni ikki taraflaridagi choklari orqali toraytirish yoki kengaytirish mumkin edi. Bu kiyim bel qismidan kengaygan etakli edi. Odatda jamalar patka deb atalgan belbog‘ bilan bog‘langan.

<sup>5</sup> <http://www.khanacademy.org.tr/sosyal-bilimler-ve-sanat/sanat-tarihi/asya-sanati/guney-asya/hindistan%E2%80%99daki-kiyafet-gelenekleri-ve-cesitlilik/16774>

Pushaklar hukmdorlar uchun juda muhim aksessuar bo‘lib, asosan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Pushakning yana bir muhim afzalligi, bu xanjar saqlash uchun qulayligi edi. Bu xanjarlar “patka” deb atalib, ular ham qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi. Jamalar asosan muhim marosimlar uchun kiyilgan kiyim turidir. Aslzoda ayollar va hukmdorlar kiyimlari uniformologiya doirasida muhim ahamiyatga ega. Bu kiyimlar ijtimoiy maqom, hokimiyat va obro‘ni ko‘rsatadi. Boburiylar davridagi hukmdorlar va aslzoda ayollar kiyimlari ularning siyosiy mavqeini va ijtimoiy obro‘sini ta’minlagan. Masalan, Boburiylar imperiyasidagi hukmdorlar va saroy a’zolari o‘z kiyimlarida go‘zallik, boylik va kuchni ifoda etishgan. Kiyimlarning tasviriy va ramziy ma’nolari, masalan, taxt kiyimi, bosh kiyimlar, zargarlik buyumlari ularning hokimiyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan.

Xulosa qilib aytganda, Boburiylar sulolasiga davrida Hindiston uniformologiyasida qorishuv jarayoni vujudga keldi. Bu holatni boshqa jabhalarda ham ko‘rishimiz mumkin. Kiyim-kechak tayyorlash uchun foydalaniladigan matolar o‘zgarishsiz qolsada, ulardagi bezatish uslubi bir qancha o‘zgarishlarni qabul qildi. Xususan, zardo‘ziy naqshlar tushirilgan kiyimlar bunga yaqqol misoldir. Bosh kiyimlarning o‘ralish uslubi, yoki oyoq kiyimlarning tayyorlanish tarzi turkiy madaniyat ta’siriga uchramasdan qolmadidi. O‘z navbatida, turkiy uniformologiya ham hindiycha madaniyatni o‘ziga qo‘sib oldi. Bu holat ayniqsa, aslzoda ayollar liboslarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ikki madaniyat va ikki sivilizatsiya qorishmasi tarix uchun takrorlanmas bir xazina qoldirdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Müslüme Melis Savaş, "Babürlü Saray Kadınlarının Güzellik Algısı ve Giyim-Kuşamları". Doç. Dr., Karadeniz Teknik Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi, Tarih Bölümü, Trabzon/TÜRKİYE.2023.
2. Özlem N. ÖZTOKSOY. 16-18. YÜZYIL OSMANLI HİNT – BABÜR KUMAŞ SANATLARI ETKİLEŞİMLERİ. İstanbul 2007. S-2
3. Uzun, T. ve Yavuz, K. ( 2023). Babürlüler Devri ( 1526-1858) Saray Resim Atölyesi ve Doğu hindistan Şirketi Resim Etkinlikleri. Korkut Ata Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 10, 869-892.
4. <http://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream/10603/49561/10/10>
5. <http://www.khanacademy.org.tr/sosyal-bilimler-ve-sanat/sanat-tarihi/asya-sanati/guney-asya/hindistan%E2%80%99daki-kiyafet-gelenekleri-ve-cesitlilik/16774>